

DARS O'TISH METODIKASI, BOLALARNI DARSGA JALB QILISH: YANGI TEXNOLOGIYALAR G'OYASI

Gulyamova Munajat Tulqin qizi

191- sonli umumiy maktabida Laborant

Amaliy Fanlar universitetining 2-bosqich talabasi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida oquvchining diqqatini o'qituvchi tomonidan berilayotgan ma'lumotlarga jalb qilish, mavzuga doir ma'lumotlarning oquvchi xotirasida tez va oson saqlanib qolishini ta'minlash usullari, bu boradagi muammolar va ularning yechimlari tadqiq etiladi. Shuningdek, diqqat haqida ma'lumotlar beriladi. Chunki diqqat inson aqliy faoliyatining asosi hisoblanadi. Zero, dars jarayonida oquvchi aqliy faoliyatining faolligi ta'lim samarasining asosi hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *metod, diqqat, ixtiyoriy diqqat, ragbatlantirish, dars jarayoni, faollik, ong, tadqiqot.*

KIRISH

Ayni damda zamonning o'qituvchilar oldiga qo'ygan talablardan biri bu - dars jarayonini samarali tashkil etish hamda o'quvchilar bilim sifatini yaxshilash. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini orttirish, ta'lim oluvchilarning diqqatini mavzu bo'yicha berilayotgan ma'lumotlarga jalb qilish tom ma'noda o'qituvchining pedagogik va psixologik mahoratiga bog'liqdir. Bugungi kunning eng dolzarb mavzusi sifatida orin olayotgan masalalardan biri bu - o'quvchining diqqatini mavzuga qaratish, ya'ni yangi mavzu o'tilayotganda o'quvchining aqliy faolligini ta'minlash. Oquvchi dars jarayoniga diqqat qaratsagina, ta'lim natijalari sifatli bo'lishi mumkin.

Hozirgi globallashuv davrida yurtimizda ta'limga katta e'tibor berilmoqda. chunki har qanday rivojlanayotgan davlatning taraqqiyot strategiyasida, albatta, ta'lim katta orinni egallaydi. Ta'lim-tarbiya jarayoni eng kop e'tibor hamda kuch talab qiladigan soha hisoblanadi. Ushbu jarayonning ishtirokchilari bo'lmish o'qituvchi va oquvchilardan ham talab qilinadigan narsa bu faollikdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTAR TAHLILI.

Dastlab, diqqat tushunchasiga to'xtalib otamiz. Diqqat deb, ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga faol qaratilishini aytamiz. Biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tsavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, ozimizning qilgan ishlarimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obyekti hisoblanadi. Aqliy faoliyatning barcha turlarida diqqat ishtirok etadi. Bizning ish-harakatlarimiz ham diqqat bilan sodir boladi.

"Diqqatga hamma vaqt u yoki bu darajadagi faollik xosdir. Bunday faollik onging bir nuqtaga to'planishining kuchayishi va ma'lum vaqt mobaynida diqqat qaratilgan narsaga onging faol yo'naltirilishini saqlab turishdan iboratdir".

Demak, oquvchi diqqati orqali uning ongiga ta'sir otkazish mumkin. Buning uchun esa o'quvchi diqqatini boshqarish, ya'ni jalb qilish zarur. Bolalardagi diqqat ulardagi aqliy

jarayonlarning sifatini ta'minlaydi hamda diqqat har qanday faoliyatning zaruriy sharti hisoblanadi. Ma'lumki, inson biror faoliyatni bajarish uchun iroda kuchini ishlatsa, bu ixtiyoriy diqqat, agar irodaviy kuchsiz, maqsadsiz ravishda diqqat paydo bo'lsa, bu ixtiyorsiz diqqat deyiladi. Ta'lim jarayonida darsga o'quvchilarning maqsadli ravishda diqqat qaratishlari, ya'ni dars paytida ixtiyoriy diqqatini turg'unlashtirishlari ta'lim uchun zarur shart hisoblanadi. Chunki "Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali otib kiradi".

Shuni ta'kidlash joizki, ixtiyoriy diqqatning alohida xarakterli xususiyati mavjud. Ixtiyoriy diqqat irodaviy zor berishni talab etadi va bir faoliyat ustida uzoq saqlanadi. Bu jarayonda u insonni jismoniy zor berishdanda koproq charchatishi, toliqtirishi, ayniqsa maktab o'quvchilarini zeriktirishi mumkin. "Shuning uchun o'qitish davrida ixtiyoriy diqqatning kuchli to'planganligi ortiqcha bo'lmasligi lozim".

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Umumta'lim tashkilotining o'quvchilarning oilalari bilan hamkorligining maqsadlari va shartlari o'zaro munosabatlarni tashkil etishning muhim tarkibiy qismidir. Ularning yutuqi ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlik qilish shakllari va usullariga - ularning birgalikdagi muloqotini va faoliyatini tashkil etish usullariga bog'liq. Hamkorlikning turli shakllari va usullarini tanlash maktab tomonidan amalga oshiriladi va ushbu bosqichda hal qilinishi kerak bo'lgan muayyan vazifalarga, ota-onalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, ushbu davrda jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liq. Guruh va jamoaviy hamkorlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- > maktab miqyosida va sinfda ota-onalar yig'ilishi;
- > maktab tadbirlari, konsertlar o'tkazish;
- > ochiq kunlar (ota-onalar kuni); ota-onalar qo'mitasining tematik konferensiyalarini tashkil etish va ular bilan yaqindan hamkorlik qilish;
- > ota-onalarning ijodiy guruhlari bilan ishlash, savol-javob kuni;
- > guruh maslahatlari;
- > ota-onalarni maktab ma'muriyati, pedagogik jamoa bilan uchrashish;
- > ota-onalar uchun ma'ruzalar;
- > seminarlar, treninglar; o'quv filmlarini ko'rish va keyingi muhokamalar; ota-onalar maktablari.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar

o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'ngi texnikalar bilan jihozlangan o'quv xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan jismoniy tarbiya sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish, talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: 2006
2. Karimova, G. (2022). The need and factors of organizing innovative activity of future physical education teachers. *Science and Innovation.*, 1(8), 1238-1243.
3. Avliyoqulov N.X. Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent., 2008
4. Abdullaev, A., & karimova, g. (2023). The architecture of historical monuments of karmana city. *Science and innovation*, 2(C3), 27-28.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod, 2008. - 180 b.
6. Abdullaev, A., & Karimova, G. (2022). Improving the process of school sports training. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 8, 60-63.
7. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod, 2010. -140 b.